FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 37.018.43:37.091.3

Xalimova Mashrabxon Vohidovna,
Andijon davlat pedagogika instituti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)
Xokimova Guljaxon Ilxomjon qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

MASOFAVIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya. Maqolada masofaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik imkoniyatlari va samaradorlikni ta’minlovchi pedagogik shartlar tahlil qilingan. Masofaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining o‘z faoliyatini rejalashtirishi, vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishi hamda o‘zlashtirish natijalarini baholay olishi muhim omillar sifatida yoritilgan. Mustaqil o‘quv faoliyatining motivatsion-maqsadli, kognitiv-mazmuniy, operatsion-faoliyatli va nazorat-baholash komponentlari tavsiflangan. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda pedagogik modellashtirish asosida mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan to‘rt bosqichli model taklif etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi faoliyati, muntazam qayta aloqa, individual yondashuv va raqamli kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, mustaqil o‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, raqamli kompetentlik, pedagogik shartlar, qayta aloqa, pedagogik model.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируются теоретико-педагогические основы, организационно-методические возможности и педагогические условия развития самостоятельной учебной деятельности учащихся в условиях дистанционного образования. Рассматриваются планирование учебной деятельности, рациональное распределение времени, использование цифровых образовательных ресурсов и оценивание результатов обучения. Охарактеризованы мотивационно-целевой, когнитивно-содержательный, операционно-деятельностный и контрольно-оценочный компоненты самостоятельной учебной деятельности. На основе теоретического и сравнительного анализа научно-педагогической литературы, обобщения и педагогического моделирования предложена четырёхэтапная модель развития самостоятельной учебной деятельности. Обоснована роль индивидуального подхода, систематической обратной связи, направляющей деятельности преподавателя и формирования цифровой компетентности учащихся. Представленные положения могут использоваться при проектировании дистанционных занятий и разработке методических рекомендаций для педагогов.

Ключевые слова: дистанционное образование, самостоятельная учебная деятельность, саморегулируемое обучение, самоконтроль, цифровая компетентность, педагогические условия, обратная связь, педагогическая модель.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING IN DISTANCE EDUCATION

Abstract. This article examines the theoretical and pedagogical foundations, organizational and methodological opportunities, and pedagogical conditions for developing students' independent learning in distance education. It discusses the importance of planning learning activities, managing time, using digital educational resources, and evaluating learning outcomes. Four interrelated components of independent learning are identified: motivational and goal-oriented, cognitive and content-related, operational and activity-based, and monitoring and evaluation. Based on theoretical and comparative analysis of scholarly literature, synthesis, systematization, and pedagogical modeling, the article proposes a four-stage model for developing independent learning. It also highlights the role of individualized instruction, timely feedback, teacher guidance, and digital competence. The proposed framework may be used in designing distance lessons and preparing methodological recommendations for teachers. The model is theoretical in nature and requires further empirical testing to establish its effectiveness.

Keywords: distance education, independent learning, self-regulated learning, self-monitoring, digital competence, pedagogical conditions, feedback, pedagogical model.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi o'qitishning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'limning ham rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Masofaviy ta'lim o'quvchilarga o'quv materiallarini o'zlashtirishda vaqt va joy jihatidan muayyan erkinlik beradi, ta'lim resurslaridan takroran foydalanish hamda individual o'quv sur'atiga mos ravishda bilim olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqotning cheklanganligi ta'lim jarayonini mustaqil tashkil etish, o'quv vazifalarini rejalashtirish va erishilgan natijalarni nazorat qilish ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida masofaviy ta'lim ta'lim olish shakllaridan biri sifatida belgilangan [1]. Mazkur huquqiy asos masofaviy ta'limni tashkil etish, uning mazmunini takomillashtirish va sifatini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bunda raqamli platformalar va elektron resurslarning mavjudligi bilan bir qatorda, ulardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta'lim sharoitida o'quvchi ko'pincha topshiriqlarni mustaqil bajaradi, materiallarni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi va o'zlashtirish darajasini tekshiradi. Biroq o'quvchiga mustaqil ishlash imkoniyatini yaratish uning mustaqil o'qish ko'nikmalari avtomatik ravishda rivojlanishini anglatmaydi. Buning uchun o'quv maqsadlarining aniqligi, topshiriqlarning izchil tuzilishi, o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, muntazam qayta aloqa va pedagogik qo'llab-quvvatlash zarur.

Masofaviy ta’limda mustaqil o‘quv faoliyatining rivojlanishi o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan munosabati, o‘z imkoniyatlarini anglash darajasi, vaqtni boshqarish qobiliyati va o‘quv natijalari uchun mas’uliyatni his etishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli ushbu jarayonni faqat topshiriqlarni mustaqil bajarish bilan cheklab bo‘lmaydi. U maqsad qo‘yish, rejalashtirish, faoliyatni amalga oshirish, natijalarni tahlil qilish va keyingi o‘quv vazifalarini belgilashni qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi masofaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini tahlil qilish, samarali tashkil etish shartlarini aniqlash va jarayonni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik modelni taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mustaqil o‘quv faoliyatining mazmunini ochib berish, uning tarkibiy komponentlarini tavsiflash, masofaviy ta’limning imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilish hamda pedagogik shartlar, rivojlanish bosqichlari va baholash mezonlarini tizimlashtirish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti masofaviy ta’lim sharoitidagi o‘quv jarayoni bo‘lsa, tadqiqot predmeti o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish mazmuni, metodlari va pedagogik shartlaridan iborat. Tadqiqotning nazariy ahamiyati mustaqil o‘quv faoliyatining tarkibiy qismlarini tizimlashtirish va ularni rivojlantirish modelini asoslash bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan yondashuvlardan masofaviy darslarni loyihalash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Masofaviy ta’limda mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda o‘quvchining mustaqilligi, o‘z-o‘zini boshqarishi, pedagogik muloqot va raqamli muhitning ta’lim natijalariga ta’siri turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi.

M. G. Mur tomonidan ishlab chiqilgan transaksion masofa nazariyasi masofaviy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot, o‘quv dasturining tuzilishi hamda ta’lim oluvchining mustaqilligi o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiladi [2]. Mazkur nazariyaga ko‘ra, masofaviy ta’limning samaradorligi faqat geografik masofa bilan belgilanmaydi. O‘quv topshiriqlarining qay darajada aniq tuzilgani, muloqotning tashkil etilishi va o‘quvchining qaror qabul qilish imkoniyatlari ham muhim hisoblanadi. Demak, mustaqil faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchiga vazifa berishning o‘zi yetarli emas, balki topshiriqni bajarish jarayonini tushunarli tashkil etish ham talab etiladi.

B. J. Zimmerman o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish jarayonini maqsad qo‘yish, rejalashtirish, faoliyatni amalga oshirish, o‘zini kuzatish va natijalarni baholash bilan bog‘liq o‘zaro aloqador jarayon sifatida izohlaydi [3]. Ushbu yondashuv o‘quvchining mustaqilligini tayyor holatdagi xususiyat emas, balki rivojlantirilishi

mumkin bo‘lgan ko‘nikmalar tizimi sifatida qarashga imkon beradi. Masofaviy ta’limda o‘quvchining o‘z faoliyatini boshqarishi, qiyinchiliklarni aniqlashi va o‘qish strategiyalarini o‘zgartirishi ayniqsa muhimdir.

J. Broadbent va W. L. Poon tomonidan olib borilgan tizimli sharhda masofaviy oliy ta’lim sharoitida o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish strategiyalari va akademik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqilgan [4]. Ushbu tadqiqot mustaqil o‘qish strategiyalarini o‘quv jarayoniga maqsadli kiritish masalasiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq bunday strategiyalarni turli yoshdagi o‘quvchilarga qo‘llashda ularning rivojlanish xususiyatlari va dastlabki tayyorgarlik darajasini hisobga olish lozim.

D. R. Garrison, T. Anderson va W. Archer tomonidan taklif etilgan «Izlanuvchilar hamjamiyati» modeli onlayn ta’lim samaradorligini kognitiv, ijtimoiy va o‘qituvchilik mavjudligining o‘zaro ta’siri bilan izohlaydi [5]. Ushbu yondashuv masofaviy ta’limda o‘quvchining mustaqil ishlashi bilan bir qatorda, tengdoshlari va o‘qituvchi bilan mazmunli muloqot qilishi ham muhimligini ko‘rsatadi. Demak, mustaqil faoliyatni rivojlantirish o‘quvchini guruhdan ajratish emas, balki individual ish va hamkorlikni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirilishi kerak.

M. S. Noulzning o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ta’lim haqidagi qarashlarida ta’lim oluvchining o‘z ehtiyojlarini aniqlashi, maqsad belgilashi, tegishli resurslarni tanlashi va o‘qish natijalarini baholashi muhim o‘rin tutadi [6]. Ushbu qarashlar masofaviy ta’limda o‘quvchining faolligini oshirish va uni o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

L. S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi ta’limoti esa o‘quvchining mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan pedagog yoki boshqa tajribaliroq shaxs ko‘magida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan faoliyat o‘rtasidagi farqni tushuntiradi [7]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, masofaviy ta’limda yordamni o‘quvchining ehtiyojiga muvofiq tashkil etish, murakkab topshiriqlarni bosqichlarga ajratish va mustaqillik ortib borgani sari tashqi ko‘makni izchil kamaytirish maqsadga muvofiq.

C. Hodges va hammualliflar favqulodda vaziyatlarda tezkor tashkil etiladigan masofaviy o‘qitish bilan oldindan pedagogik jihatdan puxta loyihalashtirilgan onlayn ta’limni farqlash zarurligini ta’kidlaydilar [8]. Ushbu fikr masofaviy ta’limni faqat texnik vositalar orqali dars o‘tish sifatida talqin qilmaslik kerakligini anglatadi. Ta’lim maqsadlari, o‘quv faoliyati, pedagogik yordam va baholash tizimi o‘zaro muvofiq tashkil etilgandagina raqamli muhit ta’limiy imkoniyatlarni to‘liq namoyon qilishi mumkin.

Tahlil qilingan manbalar mustaqil o‘quv faoliyatining rivojlanishi o‘quvchining shaxsiy faolligi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, pedagogik yo‘naltirish va ijtimoiy muloqotning uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu omillarni masofaviy ta’limning kundalik amaliyotiga tatbiq etish

uchun ularni izchil pedagogik model va aniq metodik shartlar ko‘rinishida tizimlashtirish zarur. Mazkur maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi tashkil etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va o‘rganish sur’atini hisobga olishni nazarda tutadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bilimlarni faqat nazariy o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida qo‘llashga e’tibor qaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchining bilim va ko‘nikmalaridan turli vaziyatlarda foydalana olishini, refleksiv yondashuv esa o‘z faoliyati va natijalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali mustaqil o‘quv faoliyatining mazmuni va unga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida masofaviy ta’limda mustaqillikni rivojlantirishga doir turli yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari ajratildi. Umumlashtirish hamda tizimlashtirish natijasida mustaqil o‘quv faoliyatining tarkibiy komponentlari va uni rivojlantirishning pedagogik shartlari belgilandi. Pedagogik modellashtirish asosida esa maqsad, bosqich, metod, qayta aloqa va baholash elementlarini o‘zaro bog‘lovchi to‘rt bosqichli model taklif etildi.

Mazkur model o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish nazariyasida yoritilgan maqsad qo‘yish, faoliyatni amalga oshirish va natijalarni baholash tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi [3]. Modelning mazmuni masofaviy ta’lim sharoitida o‘quvchiga mustaqil faoliyatni bosqichma-bosqich o‘rgatish, zarur pedagogik yordamni ko‘rsatish va keyinchalik o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Unda tajriba-sinov ishlari, respondentlar ishtiroki yoki statistik o‘lchovlar amalga oshirilmagan. Shu sababli maqolada keltirilgan model, pedagogik shartlar va baholash mezonlari nazariy jihatdan asoslangan takliflar sifatida qaraladi. Ularning samaradorligi va amaliy qo‘llanish imkoniyatlari keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida masofaviy ta’lim sharoitida mustaqil o‘quv faoliyatini o‘quvchining ta’lim maqsadini anglab yetishi, o‘z ishini rejalashtirishi, tegishli resurslardan foydalanishi, topshiriqlarni bajarishi va natijalarini baholashi bilan tavsiflanadigan yaxlit pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Bunday faoliyat o‘quvchidan nafaqat bilim va ko‘nikmalarni,

balki o‘z vaqtini boshqarish, qiyinchiliklarni aniqlash, yordam so‘rash va o‘z faoliyatini takomillashtirish qobiliyatlarini ham talab qiladi.

Mustaqil o‘quv faoliyatining mazmunini tizimlashtirish asosida uning to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponenti ajratildi. Motivatsion-maqsadli komponent o‘quvchining bilim olishga qiziqishi, aniq maqsad belgilashi va o‘z natijalari uchun mas’uliyatni his etishida namoyon bo‘ladi. Kognitiv-mazmuniy komponent o‘quv materialini tushunish, zarur ma’lumotlarni izlash, o‘qish strategiyalarini tanlash va bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Operatsion-faoliyatli komponent topshiriqlarni rejalashtirish, vaqtni taqsimlash, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish va yuzaga kelgan muammolarga yechim topishni qamrab oladi. Nazorat-baholash komponenti esa o‘z natijalarini mezonlar asosida tekshirish, xatolarni aniqlash, qayta aloqadan foydalanish va keyingi o‘quv maqsadlarini belgilashni anglatadi.

Mazkur komponentlar bir-birini to‘ldiradi va alohida holda to‘liq natijani ta’minlay olmaydi. Masalan, o‘quvchi raqamli platformalardan foydalanishni yaxshi bilishi mumkin, biroq o‘quv maqsadini belgilash yoki o‘zlashtirish darajasini baholashda qiynalsa, uning mustaqil faoliyati barqaror tus olmaydi. Shu sababli masofaviy ta’limni tashkil etishda bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchining o‘z faoliyatini boshqarish ko‘nikmalarini ham izchil rivojlantirish lozim.

Tahlil asosida mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishning to‘rt bosqichli pedagogik modeli taklif etildi. Birinchi bosqich motivatsion-diagnostik bosqich bo‘lib, unda o‘quvchining dastlabki tayyorgarligi, mustaqil ishlash tajribasi, texnik imkoniyatlari va o‘quv ehtiyojlari aniqlanadi. Bu bosqichda suhbat, diagnostik topshiriqlar, o‘zini baholash savollari va shaxsiy maqsadlarni belgilash usullaridan foydalanish mumkin.

Ikkinchi bosqich rejalashtirish va yo‘naltirish bosqichi hisoblanadi. Unda o‘quvchi o‘qituvchi ko‘magida o‘quv maqsadlarini aniqlaydi, vazifalarni ketma-ketlikka keltiradi va ularni bajarish muddatlarini belgilaydi. Haftalik reja, vazifalar ro‘yxati, qisqa yo‘riqnomalar va bosqichlarga ajratilgan topshiriqlar o‘quvchining faoliyatini tartibga solishga yordam beradi. Bunda o‘quvchiga tayyor reja berish bilan cheklanmasdan, uni reja tuzish jarayoniga jalb etish muhimdir.

Uchinchi bosqich mustaqil bajarish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchi topshiriqlarni mustaqil bajaradi, elektron manbalardan foydalanadi, o‘z fikrlarini asoslaydi va zarur hollarda o‘qituvchidan yordam oladi. Ushbu bosqichda muammoli topshiriqlar, kichik loyihalar, onlayn munozaralar, mustaqil izlanish va qisqa formativ testlardan foydalanish mumkin. O‘qituvchi esa o‘quvchi faoliyatini to‘liq nazorat qilish o‘rniga, qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashadi va mustaqil qaror qabul qilish uchun sharoit yaratadi.

To‘rtinchi bosqich nazorat-baholash va takomillashtirish bosqichi hisoblanadi. O‘quvchi erishilgan natijalarni dastlabki maqsadlar bilan taqqoslaydi, bajarilgan ishdagi xatolarni aniqlaydi va keyingi faoliyatini rejalashtiradi. O‘z-o‘zini ku-

zatish kundaligi, portfolio, mezonlar asosida o‘zini baholash va refleksiv hisobot ushbu bosqichning asosiy vositalari sifatida tavsiya etiladi. Natijada o‘quvchi o‘zining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Taklif etilgan modelning izchil amalga oshirilishi bir qator pedagogik shartlarga rioya qilishni talab etadi. Birinchi shart o‘quv materiallarini aniq maqsadlar, tushunarli ko‘rsatmalar, bajarish muddatlari va baholash mezonlari asosida tuzishdan iborat. Ikkinchi shart o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq. Uchinchi shart o‘quvchiga o‘z vaqtida va mazmunli qayta aloqa berishdir. To‘rtinchi shart raqamli kompetentlikni rivojlantirish va texnik imkoniyatlardagi farqlarni hisobga olishni nazarda tutadi. Beshinchi shart esa individual ish bilan bir qatorda, o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni ta’minlashdan iborat.

Mustaqil o‘quv faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlash uchun motivatsion, kognitiv, faoliyat va nazorat-baholash mezonlaridan foydalanish taklif etiladi. Ushbu mezonlar asosida shartli ravishda boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarni farqlash mumkin. Boshlang‘ich darajada o‘quvchi tashqi ko‘rsatmalar va eslatmalarga ko‘proq tayanadi, vaqtni rejalashtirishda hamda xatolar sababini aniqlashda qiynaladi. O‘rta darajada u vazifalarning bir qismini mustaqil rejalashtiradi va bajaradi, o‘qituvchi tavsiyalari asosida faoliyatini takomillashtiradi. Yuqori darajada esa o‘quvchi o‘z maqsadlarini mustaqil belgilaydi, tegishli resurslarni tanlaydi, natijalarini mezonlar asosida baholaydi va keyingi faoliyatini rejalashtiradi.

Mazkur mezonlar va darajalar nazariy tahlil asosida taklif etilgan bo‘lib, ularning amaliy ishonchliligini aniqlash uchun kuzatuv, topshiriqlar natijalarini tahlil qilish, portfolio materiallari va o‘qituvchi baholarini o‘zaro taqqoslash zarur. Shunday qilib, tadqiqot natijasida mustaqil o‘quv faoliyatining tarkibiy tuzilishi tizimlashtirildi, uni rivojlantirish bosqichlari belgilandi va pedagogik amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan metodik vositalar umumlashtirildi.

MUHOKAMA

Masofaviy ta’lim sharoitida mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishning muhim jihati o‘quvchining mustaqilligini o‘qituvchidan butunlay ajralish sifatida emas, balki o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida tushunishdir. Mustaqil ishlash o‘quvchining barcha muammolarni yordamsiz hal qilishi kerakligini anglatmaydi. Aksincha, u o‘z ehtiyojini aniqlashi, mavjud resurslardan foydalanishi va zarur vaziyatda tegishli yordamga murojaat qila olishi bilan ham tavsiflanadi. Shu ma’noda o‘qituvchining vazifasi faqat topshiriq berish emas, balki o‘quvchida mustaqil faoliyatni amalga oshirish uchun zarur strategiyalarni shakllantirishdan iborat.

M. G. Murning transaksion masofa nazariyasi bilan bog‘liq qarashlar o‘quv jarayonida muloqot va topshiriqlar tuzilishining ahamiyatini ko‘rsatadi [2]. Agar

o‘quv topshirig‘i noaniq berilsa yoki o‘quvchi o‘z savollariga o‘z vaqtida javob ololmasa, mustaqil faoliyatda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda muammoni faqat o‘quvchining motivatsiyasi pastligi bilan izohlash bir tomonlama yondashuv bo‘ladi. Topshiriqning murakkabligi, ko‘rsatmalarning tushunarliligi, ajratilgan vaqt, texnik sharoit va pedagogik yordamning mavjudligi ham hisobga olinishi kerak.

B. Zimmermanning o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish modeli bilan taklif etilgan to‘rt bosqichli yondashuv o‘rtasida mazmuniy yaqinlik mavjud [3]. Har ikkala yondashuvda ham maqsad qo‘yish, faoliyatni rejalashtirish, bajarish jarayonini kuzatish va natijalarni baholash muhim o‘rin tutadi. Maqolada taklif etilgan model ushbu jarayonlarni masofaviy ta’limning tashkiliy sharoitlariga moslashtirishga qaratilgan. Bunda diagnostika va motivatsion tayyorgarlik alohida bosqich sifatida ko‘rib chiqilib, o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos yordam ko‘rsatishga e’tibor qaratiladi.

Mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishda raqamli vositalardan foydalanishning o‘zi yetarli emas. Elektron platformalar topshiriqlarni taqdim etish, materiallarni saqlash, o‘zlashtirishni tekshirish va qayta aloqa berish imkoniyatlarini yaratadi, biroq bu imkoniyatlarning samarasi ularning pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanishiga bog‘liq. Masalan, qisqa testlar o‘quvchiga o‘z bilimini tekshirish imkonini beradi, ammo test natijasi nima sababdan xato qilinganini tushuntirmasa, uning o‘quv rivojiga ta’siri cheklanishi mumkin. Shu sababli formativ baholashda xatoni ko‘rsatish bilan birga, uni tuzatish yo‘llarini ham tushuntirish lozim.

Garrison va hammualliflar tomonidan taklif etilgan «Izlanuvchilar hamjamiyati» modeli onlayn ta’limda ijtimoiy muloqot va o‘qituvchi ishtirokining ahamiyatini ta’kidlaydi [5]. Bu fikr masofaviy ta’limda o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Guruh muhokamalari, o‘zaro taqriz, kichik loyihalar va birgalikda muammo yechish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning fikr almashishiga, o‘z qarashlarini asoslashiga va boshqalarning tajribasidan foydalanishiga yordam beradi. Biroq bunday faoliyatni tashkil etishda har bir o‘quvchining shaxsiy hissasi va mustaqil bajargan ishi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Masofaviy ta’limning yana bir muhim jihati o‘quvchilarning texnik imkoniyatlari va raqamli savodxonligidagi tafovutlarni hisobga olishdir. Barqaror internet aloqasi, mos qurilma yoki zarur dasturlardan foydalanish imkoniyati barcha o‘quvchilarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Shu bois topshiriqlarni loyihalashda turli texnik sharoitlarda bajarish imkoniyatini ko‘zda tutish, ko‘rsatmalarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etish, zarur hollarda materiallarning muqobil variantlarini taklif qilish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv o‘quvchining natijasini faqat texnik imkoniyatlar bilan belgilab qo‘ymaslikka yordam beradi.

Tadqiqotda taklif etilgan baholash mezonlari o‘quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etish usullarini ham hisobga olishga qaratilgan. Masalan, o‘quvchi topshiriqni to‘g‘ri bajargan bo‘lsa-da, uni mustaqil rejalashtirishda doimiy yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Boshqa o‘quvchi esa

ayrim xatolarga yo‘l qo‘ygan holda, ularni aniqlash va tuzatish strategiyalarini samarali qo‘llashi mumkin. Shuning uchun baholashda yakuniy natijalar bilan bir qatorda, rejalashtirish, faoliyatni kuzatish va refleksiya ko‘nikmalarini ham kuzatish zarur.

Maqolaning nazariy xarakteri taklif etilgan model samaradorligi haqida qat’iy empirik xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda modelni turli yosh guruhlari va fanlar doirasida sinab ko‘rish, o‘quvchilarning dastlabki hamda yakuniy ko‘rsatkichlarini taqqoslash va olingan natijalarni tegishli usullar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bunday izlanishlar modelning amaliy imkoniyatlarini aniqlash, baholash mezonlarini takomillashtirish va o‘quvchilarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalarni yanada aniqroq ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA

Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining sifatini oshirish va o‘quvchilarda o‘z ta’limi uchun mas’uliyat hissini shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mustaqil o‘quv faoliyati faqat topshiriqlarni o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz bajarish bilan cheklanmaydi. U o‘quv maqsadini belgilash, faoliyatni rejalashtirish, tegishli resurslardan foydalanish, natijalarni nazorat qilish va keyingi o‘quv vazifalarini belgilash kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

Tadqiqot doirasida mustaqil o‘quv faoliyatining motivatsion-maqsadli, kognitiv-mazmuniy, operatsion-faoliyatli va nazorat-baholash komponentlari tizimlashtirildi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchining o‘z faoliyatini ongli boshqarishi, bilimlarni amaliyotda qo‘llashi va ta’lim natijalarini tahlil qilishi uchun zarur shart hisoblanadi.

Masofaviy ta’limda mustaqil faoliyatni rivojlantirish maqsadida motivatsion-diagnostik, rejalashtirish va yo‘naltirish, mustaqil bajarish va qo‘llab-quvvatlash, nazorat-baholash va takomillashtirish bosqichlarini qamrab oluvchi pedagogik model taklif etildi. Modelning mazmuni o‘quvchiga mustaqil ishlashni bosqichma-bosqich o‘rgatish, uning individual ehtiyojlarini hisobga olish va o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun o‘quv materiallarini aniq tuzish, topshiriqlar va baholash mezonlarini oldindan belgilash, muntazam qayta aloqa berish, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi faoliyatini kuchaytirish hamda o‘quvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish zarur. Shuningdek, individual topshiriqlarni o‘zaro hamkorlik va muloqot shakllari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning texnik imkoniyatlaridagi farqlarni hisobga olish muhimdir.

O‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini baholashda motivatsion, kognitiv, faoliyat va nazorat-baholash mezonlarini birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi. Bunda

yakuniy natijalar bilan bir qatorda, o‘quvchining rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish, xatolarni aniqlash va faoliyatini takomillashtirish ko‘nikmalari ham e’tiborga olinishi lozim.

Amaliy jihatdan masofaviy darslarni maqsad, topshiriq, muddat va baholash mezonlari aniq ko‘rsatilgan modullar shaklida loyihalash, o‘quvchilarga haftalik reja va o‘z-o‘zini kuzatish kundaligidan foydalanishni o‘rgatish, portfolio hamda formativ baholash vositalarini joriy etish maqsadga muvofiq. O‘qituvchilar uchun samarali qayta aloqa berish va mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’limning imkoniyatlaridan samarali foydalanish o‘quvchining mustaqil faoliyatini shunchaki talab qilish bilan emas, balki uni rejalashtirish, amalga oshirish va baholashga bosqichma-bosqich o‘rgatish orqali ta’minlanadi. Taklif etilgan pedagogik model nazariy asos sifatida masofaviy ta’limni tashkil etish va metodik jihatdan takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin. Uning samaradorligini aniqlash uchun kelgusida tajriba-sinov ishlari olib borish, baholash mezonlarini empirik tekshirish va olingan natijalarni ilmiy tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — https://lex.uz/docs/5013007

2. Moore, M. G. Theory of Transactional Distance // Theoretical Principles of Distance Education / ed. D. Keegan. — London: Routledge, 1993. — P. 22–38.

3. Zimmerman, B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70. — DOI: https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2

4. Broadbent, J., Poon, W. L. Self-Regulated Learning Strategies and Academic Achievement in Online Higher Education Learning Environments: A Systematic Review // The Internet and Higher Education. — 2015. — Vol. 27. — P. 1–13. — DOI: https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2015.04.007

5. Garrison, D. R., Anderson, T., Archer, W. Critical Inquiry in a Text-Based Environment: Computer Conferencing in Higher Education // The Internet and Higher Education. — 2000. — Vol. 2, No. 2–3. — P. 87–105. — DOI: https://doi.org/10.1016/S1096-7516(00)00016-6

6. Knowles, M. S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. — New York: Association Press, 1975.

7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / ed. M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, E. Souberman. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

8. Hodges, C., Moore, S., Lockee, B., Trust, T., Bond, A. The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning // EDUCAUSE Review. — 2020. — March 27. — https://er.educause.edu/articles/2020/3/the-difference-between-emergency-remote-teaching-and-online-learning